

O'ZBEKISTONDAGI IQTISODIY MUAMMOLAR VA ULARNI TIZIMLI HAL QILISH YO'LLARI

Sheraliyev Islombek Ravshanbek o'g'li
TMI Andijon fakulteti "Moliya va moliyaviy
texnologiyalari" yo'nalishi 1-kurs talabasi

Annontatsiya

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining qisqacha iqtisodiy tarixi va yuz bergan iqtisodiy muammolari hozirgi kundagi muammo va kamchiliklari hamda ularni tizimli ravishda halqilish choralari, rivojlangan davlatlarning iqtisodiy tarixi qo'llagan taktik usullari va soxaga doir berilgan shaxsiy fikr- muloxaza va takliflar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlari: iqtisodiy inqiroz, iqtisodiy tanglik, bozor iqtisodiyoti, o'zbek modeli, shok terapiyasi, raqobat muhiti, iqtisodiy obro', yalpi ichki maxsulot(YIM), AQSH, Rossiya va Ukraina, moliyaviy savodxonlik.

Kirish

Ma'lumki O'zbekiston Respublikasi tarixiga qarasak rasman davlat deb tan olinib jahon xaritasiga 1991-yilda kiritilgan. Aynan o'sha yili mamlakatimiz mustaqilligining ilk yillari hisoblanadi. Albatta sir emaski O'zbekiston sobiq "CCCR" tarkibidan chiqishi va mustaqillikni e'lon qilishi bilan ittifoqdosh davlatlar o'rtaida bo'ladigan iqtisodiy a'lqalar uzulishi aholi uchun kerakli bo'lgan ayrim oziq-ovqat maxsulotlari birdaniga to'xtab qolishining yuz berishi mamlakatda ma'lum darajadagi iqtisodiy inqirozni keltirib chiqarishiga sabab bo'ldi. Buning oqibatida mamlakatimizda iqtisodiy tanglik holati yuzaga kelib endilikda aholini yetarli oziq-ovqat, to'qimachilik va sanoat hamda avtomobilarga bo'lgan extiyojini qondirish uchun to'gri iqtisodiy siyosat olib borish va iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'shish ayni o'sha davr talabiga aylangandi. Bu borada Respublikaning iqtisodiy axvoli quyidagicha edi mamlakat yerlarining ketma-ket paxta ekilishi natijasida yernining unumdorligini pasayishi va bazi holatlarda zaxarlanishi hamda o'sha va hozirgi paytdagi asosiy global muammo bo'lgan "Orol"ning qurishi edi. Bunday holatda qishloq xo'jaligini rivojlantirmsandan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlarini oshirishning iloji yo'q edi. Bunday holatda mamlakatdagi iqtisodiy axvolni yaxshilash va muammolarni bartaraf etishning eng maqbul yo'li bu O'zbekistonni iqtisodiy kelajagini taminlovchi to'g'ri yo'lni tanlash edi. Bu borada birinchi



Prezidentimiz Islom Karimov O'zbekistondagi iqtisodiy muammolarga butunlay barxam berish uchun eng to'gri yo'l deb "Bozor iqtisodiyoti"ni tanladi va butun jaxon tan olgan taraqqiyotning "O'zbek modeli"ni ishlab chiqdi. Ushbu model bo'yicha O'zbekiston yangi iqtisodiy tizimga "shok terapiyasi" yani birdaniga o'tish bilan emas balki bosqichma-bosqich o'tishi edi. O'zbek modelining besh bosqichi mavjut bo'lib bunda iqtisodiyotda davlat bosh islohotchi ro'lida edi. Bu tizim ishga tushirilib tajribaga tadbiq qilionishi bilan O'zbekistonda iqtisodiy muammolar vaqt o'tishi bilan hal qilina boshladi. Eng muhimi butun jaxon oldida O'zbekiston 1997-yilga kelib qayt qilgan natijasi bozor iqtisodiyotini tanlab adashmaganini isbotladi. Ushbu model asosida hozirgi ishlab chiqarilayotgan yangi iqtisodiy rivojlannish tizimlari ham o'z samarasini berib kelmoqda lekin aynan hozirgi kunga kelib iqtisodiy muammolarni to'laqinli hal eta oldik deya olmaymiz. Chunki hozirgi rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish tarixiga nazar tashlasak ular o'zidagi iqtisodiy muammolar va iqtisodiy o'sish darajasini sekinligini raqobat muhiti past ekanligida va ko'plab korxonalar tobora monopollashib borayotgani hamda ishlab chiqarish tarmoqlari faqat bir kompaniya qo'liga o'tayotganligini bilib bunga barxam beradi va korxonalarni maydalashtirish siyosatini qo'llay boshlaydi va natijada ulkan raqobat maydonini yaratishi hamda uni rivojlantirishi bilan hozirgi iqtisodiy yutuqlarga bir fundament quyadi deyishimiz mumkin. Hozirgi kunda O'zbekistonda ham monopoliyani qisqartirish va raqobat muhitini rivojlantirish uchun qator farmon va qarorlar ishlab chiqilmoqda, bu bilan mamlakatimiz hududidagi iqtisodiy muammolar tizimli yechilmoqda deya olamiz. Yirik korxonalar ma'lum darajada bizga foyda keltirmoqda masalan ko'plab odamlar ish bilan ta'minlanishi va yangi maxsulotlar ishlab chiqilsa keng miyosda ishlab chiqarilishi kabiladir. Lekin raqobat yo'q joyda rivojlanish ham iqtisodiy o'sish ham bo'lmaydi.

Adabiyotlar va taxlillar

Albatta biz yuqorida tilga olgan va fikr mulohazalar bildirgan mavzu bu iqtisodiy muammolar bo'lsa uni aslida nima ekanligini quydagicha ifodalaymiz.

Iqtisodiy muammolarga misol - bu nima, qanday va kim uchun ishlab chiqarish. Har bir iqtisodiyot oldida bir qancha muammolar turadi. Bular - nimani ishlab chiqarish, ya'ni qanday mahsulot turlarini ishlab chiqarish; mahsulotlarni qanday qilib ishlab chiqarish; mahsulotlar jamiyatda qanday qabul qilinishi [1] bo'lsa iqtisodiy muammolar ishlab chiqarishda quydagicha bo'lishi mumkin. Muayyan miqdorda kapital yo'qotish, ishlab chiqarish maydonlarining qisqarishi, ishsizlar sonining ortishi, raqobatbardosh bo'lmasan mahsulot ishlab chiqaradigan va buning uchun



katta miqdorda materiallar, xomashyo, yonilg`i, mehnat resurslari sarflaydigan. Shu jumlada iqtisodiy o'sishga tasir qiluvchi yana bir omil bu aholining tarkibi hisoblanadi. Ishchi kuchi tarkibiga kirmaydigan mehnatga qobiliyatli aholi. Uning jumlasiga quyidagilar kiradi: ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olayotgan o`quvchilar va talabalar, o`quv yurtlarining tinglovchilari va kursantlari; uy xo`jaligini yuritishda ishlovchilar [1]. Albatta yuqorida nomi keltirib o'tilgan bir qancha omillar iqtisodiy muammolar tarkibiga kiritish mumkin. Iqtisodiyotdagi muammilarni sanasak albatta ularning oxiriga yetib borishning o'zi bir muammo hisoblanadi. Lekin iqtisodiyotning doimiy va bosh muammosi- bu iqtisodiy resurslar cheklangan sharoitda jamiyatning cheksiz ehtiyojlarini qanday qilib to'laroq qondirib borish mumkinligi to'g'risidagi masaladir. Iqtisodiyotning doimiy muammolari. Jamiyat ehtiyojlarining cheksizligi hamda resurslarning cheklanganligi. [2]

Albatta bunday muammolar bor sharoitda iqtisodchilar also tinmasligi kerak chunki xozirgi zamonda iqtisodiy muammolarga qancha tez barxam berilsa yoki yechim yo'llari keng tadbiq qilinsa albatta ma'lum darajada mamlakatni rivojlanishi va iqtisodiy obro'siga ham sezilarli ta'sir o'tkaza oladi. Bunday shiddatli zamonda mamlakatning iqtisodiy muammolarini hal qila oladigan yetuk kadr va zamonaviy texnologiyani yaxshi tushunuvchi yoshlarni safini kengaytirish ularni yanada soxasiga doir chuqurroq taxsil olishlarini ta'minlash va kerakli shart-sharoitlarni ularga yaratib berish kerak. Albatta bo'lajak kadrlarni manaviy yetuk va soxasining yetuk mutaxasisi qilib yetishtirish uchun unlarga asosisi faqat shart sharoitlarga emas balki ularni bilim darajasini oshirishdagi asosiy ro'lni o'ynovchi ustozlarni ham maxsus tayyorlovlardan hozirgi zamon bilan hamnafas bo'lgan va yoshlarni yaxshi chiqishib ketuvchi yuqori ilmiy darajadagi ustozlar bilan yuqori natijaviylikka ega metodika asosida o'qitish bu kelajakdagi nafaqat iqtisodiy balki boshqa soxalardagi muammolarni va extimolli vaziyatlarni oson hal qila oladigan yosh mutaxasislar yetishib chiqishini ta'minlaydi. Shu bilan bir qatorda kelajakdagi iqtisodiy muvaffaqiyatlar va zafarlarni egallashga yordam beradi. Bizning hozirgi kundagi iqtisodiy muammolarimizdan biri bu ayni damda bizning mamlakatimizda kichik biznesning rivojlanmagani va aholimizda moliyaviy savodxonlikning sezilarli darajada pastligi. Hozirgi rivojlangan mamlakatlardagi Yalpi Ichki Maxsulot(YIM) hajmini 60-70% aynan kichik bizneslarga tegishlidir. ularning ishlab chiqarish darajasi dunyo tan olgan standartlar asosida bo'lib ularning maxsulotlari dunyo bo'ylab eksport qilinadi. Shunday davlatlar qatoridan birini misol qilsak bu Amerika Qo'shma Shtatlari (AQSH). Amerikada ishlab chiqarish



va eksport hajmi juda yuqori hisoblanadi huddi Xitoy Xalq Respublikasi kabi. Bu ikki mamlakat dunyoda ishlab chiqarish soxasida yetakchi xisoblanadi. Lekin 2023-yilga kelin Jahon bankining takidlashicha Xitoyda ha ishlab chiqarish ma'lum darajaga sustlashgan. Demak iqtisodiy muammolar faqatgina rivojlanayotga yoki qoloq davlatlarda emas balki rivojlangan yetakchi davlatlarda ham ro'y beradi. Iqtisodiy muammolar hozirgi kunda asosan Rossiya va Ukraina urushi natijasida kelib chiqmoqda va bu osiyo va yevropa ittifoqi davlatlariga ham sezilarli ta'sir o'tkazmoqda. Masalan oziq ovqat masalasi chunki rus va ukrain xalqlari pista yog'i va shakar eksporti bo'yicha yetakchi mamlakatlar hisoblanadi va yevropada tabiiy gaz kabi neft maxsulotlarining narxlarini o'sishi bularning barchasini bir so'z bilan iqtisodiy muammolar deya olamiz. Albatta hozirgi iqtisodiy tang holat mening nazarimda Ukraina hududida yuz bermoqda. Bu urush mamlakatning deyarli barcha joyida kuzatilmoqda va uning salbiy oqibatlari elektr tarmoqlarining jiddiy shikastlanishi, oziq-ovqat muammosi, urush natijasida yuzaga kelgan uy-joylarning vayronagarchilikari kabi yana ko'plab insonni yomon holatga soluvchi omillarni sanab o'tish mumkin. Shuning uchun ham yurboshimiz mamlakatimiz va xalqimiz ichidagi intizomni saqlashga katta e'tibor bermoqda. Chunki ichki nizolar ham butun bir boshli mamlakatni iqtisodiy inqirozga yuz tutishiga sabab bo'ladi.

Buning yaqqol misolida sobiq ittifoq CCCR misolida ko'rsak olib borilgan noto'g'ri iqtisodiy siyosat yani "Ma'muriy buyruqbozlik" oddiy qilib aytganda rejali buyruqbozlik tizimi va ma'lum ichki nizolar sababi bilan ittifoq parchalandi va ajralib chiqqan davlatlar asta sekin mustaqillik e'lon qilishi va CCCR ning iqtisodiy inqirozi bilan yakunlandi. Albatta biz olib brogan taxlillar yakunida shuni aytta olamizki agar mamlakat miqyosida tinchlik bo'lsa, xalq davlatdan rozi bo'lsa va o'sha davlatda ta'limga katta e'tibor berilsa bunday davlatning yuzaga kelishi mumkin bo'lgan iqtisodiy-siyosiy muammolardan qo'rmasa ham bo'ladi. Shunday davlatlardan biri deb men O'zbekistonni aytta olaman va bizni mamlakatni kelgusida yuksak iqtisodiy zafarlar kutayotganiga ishonch bildira olaman.

Tadqiqot metadalogiyasi

Ushbu maqolaning nazariy va uslubiy asosi bo'lib mamlakatimizdagi iqtisodiy axvol va uning qisqacha tarixi, iqtisodiy ko'rsatkichlari, iqtisodiy muammolari, rivojlanga mamlakatlarning iqtisodiy muammolarni yechish tajribasi va soxaga doir berilgan tariflar va jahon bankining malumotlari va shaxsiy fikr-mulohazalar xizmat qildi. Shuningdek, tadqiqot jarayonida iqtisodiy muammolarga turlicha takliflar berish,



bo'lishi mumkin bo'lgan prognozlar taqdim qilish va qiyosiy taxlillar o'tkazish kabi bir qancha usullardan foydalanildi.

Xulosa va takliflar

Yuqorida keltirib o'tilga ma'lumotlar fikrlar mavzuga doir tushuncha va ta'riflar turlicha mamlakatlardagi iqtisodiy muammolar haqida bildirilgan xulosalarga ko'ra shuni ayta olamanki O'zbekistondagi iqtisodiy muammolarni tizimli ravishda bosqichma-bosqich hal qilish, mumkun bo'lgan iqtisodiy muammolarga bardosh bera olishi uchun hukumat tomonida keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Masalan Prezidentimizning "Hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini reyting baholash tizimini joriy etish to'g'risida"[3]gi farmoniga asosan endi qaysi hududda iqtisodiy muammolar bor ekanligi yanada ravshanlashadigan bo'ldi. Chunki har bir hudud iqtisodiy faoliyati reyting asosida baholangan taqdirda qaysi soxada muammo bor ekanligi va qaysi soxa oqsayotganini bilish mumkin bo'ldi. Faqatgina bu bilangina cheklanib qolinayotgani yo'q albatta kun sayin joriy qilinayotgan farmon va qarorlarning ko'plari aynan iqtisodiy muammolarni hal qilishga qaratilayotgani biz ham iqtisodiy yuksak daraja va ko'rsatkichlar tomon ildam qadamlar bilan borayotganimizni bildiradi. Shaxsiy yondashuv bilan iqtisodiy muammolarni hal qilish uchun quyidagicha o'z fikr va mulohazalarimni berib o'tishim mumkin. O'zbekiston kelajagi uni yanada gullab yashnashi, xalqni farovon hayot kechirishi albatta iqtisodiy masala hisoblanadi. Bunday holatlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan iqtisodiy muammolarni hal qilgandan ko'ra mutaxasislar tajribasi va prognozlariga tayangan holda ularni oldini olgan afzal. Hozirda olib borilayotgan isloxoqlar tizimiga shuni qo'shimcha qilib amaliyatga taklif qila olamanki aholini faqat ziyoli qatlamida emas balki oddiy aholi qatlamlarida ham "Moliyaviy savodxonlik" darajasini o'stirish kerak. Chunki anynan bizning xalqimizning asosiy iqtisodiy muammularidan biri ham shudir.

Muammoni yechishda esa aholini yoshi mentaliteti va qadriyatlarini hisobga olagan holda ularga moliyaviy savodxonlikni yetkazish va uni doimiy ravishda rivojlantirib borishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tsue.uz.
2. Hozir.org.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 01.05.2020 yildagi PQ-4702-son

